

RAUF PARFI SHE'RIYATIDA SHAMOL OBRAZI<sup>1</sup>

Behzod FAZLIDDIN\*

## АННОТАЦИ

Рауф Парфи шеърляри умултурк адабиетида ҳам алоҳида ўринга эга бўлиб, шоир ижодида ўзбек ва жаҳон адабиети анъаналари ўзига хос синтез қилинган. Шоир шеърляри инсоннинг мураккаб табиати, беқарор ўзлигидан баҳс этади.

Рауф Парфи шеърлярида Сўз, Шамол, Ёмғир, Япроқ, Хазон, Кеча, Кундуз, Ой, Тоғ сўз-образлари кўп учрайди. Шоир ижоди такомиллашгани сари ушбу сўз-образларнинг салмоғи орта борди, мукамал образ тусини олди. Хусусан, Шамол образи Рауф Парфи ижодида алоҳида аҳамиятга эга: бу образ зиммасига муҳим маъно-мазмун, бадиий юк ортилган. Шоирнинг “Шамолга осилиб яшадим...”, “Шамоллар” номли шеърлярида Шамол образи ўзига хос поэтикаштирилади.

Рауф Парфи шеърлярида шамол нажоткор кучга айланади. Бунда ажиб контрастни кўришимиз мумкин. Шоир шеърлярида Шамол образи бир вақтнинг ўзида ҳам нажот, ҳам ҳалокат келтирувчи куч сифатида талкин этилади. Ушбу образга матндаги бадиий функциясига қараб бир қанча сифатлаш-эпитетлар ёндош қўйилади: *сарин* шамол, *ёвуз* шамол, *қора* шамоллар, *совуқ* шамоллар, *ажал* шамоли, *ўлик* шамол, кузнинг яйдоқ *сариқ* шамоли, *вабо* шамоли...

Шоир шеърлярида *шамол образи* кўпинча *ёмғир образи* билан бирга келади. Бунда мантиқий боғлиқлик бор, албатта. Гўё табиатнинг азал ёнма-ён икки ходисаси – шамол ва ёмғир инсон қалби, руҳиятидаги қондош, баъзан бир-бирига қарши туйғулар қиёфасида гавдаланади. Шоирнинг япон хоккуларига ҳам монанд учликларидида шамол образи кўп учрайди.

Метафорик тафаккур – Рауф Парфи шеърлярининг муҳим белгиси. Бу унинг ижодий индивидуаллигини таъминловчи асосий воситалардан. Шоир ижодининг ушбу ўзига хос белгисини Асқад Мухтор шундай эътироф этганди: “Рауф Парфи поэзияда мураккаб ва динамик метафоралар усулини танлади. Унда айрим образларгина эмас, балки бутун шеър метафора ҳаракатига қурилади, метафора поэтик тилга, образ мантиқига, шеърини тафаккур бойлигига айланади”. Мақолада биз таҳлил этишга уринган “Шамоллар” шеъри метафора-шеърга ёрқин мисолдир.

“Шамоллар” шеърини Абдулла Ориповнинг “Юртим шамоли” шеъри билан қиёслаб ўрганиш асносида шу хулосага келдикки, Абдулла Орипов “шамол”и миллий колоритда бўлса, Рауф Парфи “Шамоллар”и умумбашарий моҳият касб этган.

**Калит Сўзлар:** Ўзбек шеърляри, Рауф Парфи, метафора, образ, шамол, лирик субъект, метафора-шеър, метафорик тафаккур, лирик характер.

## THE IMAGE OF WIND IN RAUF PARFI'S POETRY

## ABSTRACT

Rauf Parfi's poetry has a special place in general Turkic literature, and Uzbek and world literature traditions has been synthesized in his poetry. Poet's poems refer to the complex nature of man and his unstable self.

The images of Word, Wind, Rain, Leaf, Abscised Leaf, Night, Daylight, Moon, and Mountain are common in the poems of Rauf Parfi. As the poet's creativity improved, the impression of these word-images went up, and it became a perfect image. In particular, the image of the Wind plays a special role in the works of Rauf Parfi: the image has a significant meaning and artistic content. The image of Wind poeticized specifically in the Poet's Poems such as “Shamolga osilib yashadim...” (I Lived by Hanging to the Winds...) and “Shamollar” (Winds).

The wind becomes a savior in the poems of Rauf Parfi. Here we can see a striking contrast. In his poetry, the image of the Wind is interpreted as a salvation and destructive force at the same time. Depending on the artistic nature of the image in the text, a number of qualitative epithets put aside the image, for example *fresh* wind, *malign* wind, *black* winds, *cold* winds, *death* wind, *bare yellow* autumn wind, *choleraic* wind...

*The image of wind* often comes with the *image of rain* in the poems of the poet. There is a logical connection here. As if the two natural phenomenons of nature, like the wind and the rain, are embodied in the physiognomy of the

<sup>1</sup> Rauf Parfi. Saylanma. – T.: Akademyashr, 2013. – B. 370. (Manbasi ko'rsatilmagan keyingi she'rlar ham shu kitobdan olindi.)

\* O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tadqiqotchisi, behzod-fazliddin@bk.ru.

feelings, which are close to human heart, mood and sometimes these feelings are opposite to each other. The image of the wind has written often in the poet's three-line poems, which are very similar to Japanese haiku.

Metaphorical mentation is an important sign of Rauf Parfi's poetry. This is one of the main tools which support his creative personality. Asqad Mukhtor admits this peculiar manifestation of the poet's work: "Rauf Parfi chose complex and dynamic metaphors' method in poetry. Not only some images, but all poetry is built on the metaphorical movement, metaphor transforms into a poetic language, image's logic, and wealth of poetic thinking". The poem "Shamollar" (Winds) that we are trying to analyze in this article is a striking example of metaphorical poetry.

When comparing the poet's poem "Shamollar" (Winds) with Abdulla Aripov's poem "Yurtim shamoli" (Wind of my Land), we concluded that "wind" of Abdulla Aripov was in national color and Rauf Parfi's "Winds" became a universal subject.

**Key Words:** Uzbek poetry, Rauf Parfi, metaphor, image, wind, lyric subject, metaphor-poem, metaphorical mentation, lyric character.

Rauf Parfi she'rlarida So'z, Shamol, Yomg'ir, Yaproq, Xazon, Kecha, Kunduz, Oy, Tog'... so'z-obrazlari ko'p uchraydi. Shoir ijodi takomillashgani sari ushbu so'z-obrazlarning salmog'i orta bordi, bir paytlar shunchaki o'z ma'nosida qo'llanilgan so'zlar keyinchalik mukammal obraz tusini oldi. Shamol obrazi ham Rauf Parfi ijodida alohida ahamiyatga ega: bu obraz zimmasiga muhim ma'no-mazmun, badiiy yuk ortilgan. "*Shamolga osilib yashadim*", deydi shoir. Mantiq ko'chalariga qo'yilgan qizil chiroqlarga parvo qilmay, yo'lni kesib o'tayotgan yo'lovchi holatiga tushgandek bo'lamiz: axir qanday qilib shamolga osilib yashash mumkin? Xulosaga shoshilmaylik. Haqiqiy poeziyaning qudrati mana shunday o'ta nozik va qaltis ma'no tovlanishlarida namoyon bo'ladi.

*Shamolga osilib yashadim,*

*Mingga kirdim, chiridi jismim,*

*So'ngaklarim oqardi qaqshab.*

(Parfi, 2013: 370)

Biz "yulib" olgan "*Shamolga osilib yashadim*" esa tom ma'noda she'rdagi satrlar dominant.

Shamol – ramz, ramz esa har doim ko'p ma'noli. Shu ma'nolarni ochishga urinamiz. Avvalo, shamol – hayotning tezkor maromi. "*Mingga kirdim*" deya yozg'irayotgan lirik subyekt aslida u qadar ham ko'p yashagan, ammo ming yil yashagandek – shuncha vaqtga yetarli "chop-chop" ichra kun kechirgan. "Shamolga osilib yashash" majburlik va ixtiyoriy majburiyat asosida bo'lishi mumkin. She'rdagi Shamolni tavakkul timsoli deb qabul qilsak ham bo'ladi. Tavakkul – umumiyroq qilib aytganda, o'zini butunlay Allohning irodasiga topshirish, bor umidni Yaratganga bog'lash, Uning marhamatiga ishonish, Undan o'zgasidan najot kutmaslikdir. Shoir tavakkulga yo'g'irgan Shamol – u osilib yashagan Shamol yo ruhiyatini azoblardan butunlay forig' etadi, yo halokat sari olib ketadi. Demak, lirik qahramon – shoir Shamolni chora deb qabul qilayotir.

Rus shoirasi Marina Svetayevaning "*Mening Pushkinim*" essesinde shunday lavha bor. Jajji Musya (Marina)ga onasi Napoleon haqida shunday deydi: "*U osmonning odami. Hamisha osmonda osilib turadi*". "*Shu muloqotdan so'ng, – deb yozadi shoir, – osilib turgan narsaga ko'zim tushsa, uni Napoleon bilan bog'lardim. "Osilib turmoq" iborasining o'zida qandaydir bir qora qismat bor edi. O'z ixtiyoridan tashqarilik, erksizlik, mahkumlik yashardi. Napoleon nimaga, qanday tasavvurlarda osilgan? Shuhratgami, toj-u taxtgami, cheksiz hukmronlikkami?*

*O'ylayversang, toliqib ketasan..."* (Svetayeva, 2001: 140).

Shoiraning bu soʻzlarini biz tahlil etishga urinayotgan satrga bogʻlar ekanmiz, “shamolga osilib yashash” oʻz ixtiyoridan tashqarilik, erksizlik, mahkumlik bilan birga muvaqqatlik holatini ham ifodalaydi. Demak, shoir Shamol obraziga (aniqrogʻi, *Shamolda osilib yashash* iborasiga) polifonik maʼno yuklay olgan.

Baxtiyor Isabek buni “raufchasiga dunyoqarash” deb izohlaydi: “Shoir olamni Raufcha koʻradi, shuning uchun ham bizning tilimiz uchun yangi boʻlgan birikma, yangi tushunchalar yaratadi va bu birikma hamda u ifoda etgan maʼno yangi tomonlarga ega boʻladiki, shuning uchun ham uning bu xislatini tushunish, magʻzini chaqish ayrimlarga ogʻirlik qilgan”. Olim shu satrni tahlil qilarkan, davom etadi: “Osmon – muhit, muhit esa sokin va sukutda (mudroqda, gʻaflatda), uni shamol uygʻotadi. Ana shu uygʻotuvchi va qoʻzgʻatuvchi shamolga, harakatda erkin, ozod shamolga osilgan shoir. Osilish ham ikki maʼnoli: shamolga osilib, dorga osilganday boʻgʻilish mumkin yoki oyogʻini osiltirib ozod shamol eltgan tomon ixtiyorsiz koʻchishdir bu. Har ikki holda ham muallif shamolga oʻzi osilmagan, u osilgan holda (majhul nisbat) mavjud”.

Shoirning shamolini oʻquvchi xoh olis-olis orzular deb tushunsin, xoh ulkan dardlar toʻzonidan iborat hayot deb qabul qilsin, xohlarsa Erk deb bilsin – haqi ketmaydi. Bizningcha, shoirni koʻproq shamoldagi ozod ruh maftun etgan boʻlsa kerak. Ammo oʻta hur koʻringan shamolning-da ixtiyori oʻzida emas – butun olamlar Sohibining izmida.

Shoirning “Shamollar” sarlavhali sheʼrida esa bu obraz yanada mukammallashadi. Sarbastda bitilgan ushbu sheʼrda murakkablik faqat shakl emas, mazmunga ham koʻchgan: bir oʻqishda tushunish qiyin. Sheʼrning boshlanishyoq shamol shovqinini bergandek boʻladi:

*“Shamollar boshimda aylanur, daraxtlar tebranur shamollarda, daraxtlarning mevasi larzon, soyasi larzon...”*

Sheʼr davomidan anglash mumkinki, lirik qahramon boshida aylanayotgan shunchaki shamol emas, “odamlarning, vatanlarning shamollar shaklida hayqirgan ovozi”dir. Shu tariqa kesilgan daraxtlar – toʻnkalar kesilguvchi boshlarga, yuvilgan kiyimlar osiladigan dor – dorboz tomosha koʻrsatadigan va yana eng goʻzal fikrlar osilgan dorga; choʻyan – oshxonadagi qozon – oskolkaga; temir (Fe) – jonga... aylanadi. Quyosh esa – “fojeʼ xotira”! Chunki shoir “narsalarga narsaday qaray olmayapti”. Bunga “shamollar onasi” boʻlgan asri sabab.

Bahodir Sarimsoqov asl ijodkorlarga xos individual istioralar haqida gapirar ekan, “Rauf Parfi “Shamollar” sheʼrida “shamol” soʻziga shu qadar teran, bir-biridan uzoq koʻchma maʼnolar beradiki, natijada, sheʼr soʻngida bu koʻchim asrimiz kishilari boshidan kechayotgan suronli davr oqimi va shiddatini ifodalay oladigan istioraviy obrazga aylanadi” (Sarimsoqov, 2004: 51), deydi. Olim fikricha, sheʼrdagi “shamol” tinimsiz suron bilan esadigan XX asr onlarining badiiy ifodasidir. Shunday qilib, “Rauf Parfi asrimizga, kundalik hayotimizga xos barcha yaxshi-yomon, ezgu va yovuz voqea, hodisalar yuragi ozgina pok, iymoni but, vijdonli, aqli barkamol insonlarga shamolu boʻronlar kabi tinchlik va orom bermasligini ‘shamol’ istioraviy obrazi vositasida betakror ifodalay olgan” (Sarimsoqov, 2004: 53). Hamma gap shundami? Shamol – yangilanish, dunyoni “supurib”, butunlay yangi dunyo yaratuvchi

buyuk qudrat ramzi. Tozarish, hurlik belgisi. Harholda, shoir she'rlaridagi tagma'no shunga ham ishora qilmoqda. Shamol, o'z navbatida, butun bir asrdir ("*Shamollar onasi, hey asrim*").

Nazarimizda, lirik qahramon – shoirning asl niyati she'rdagi mana bu kulminatsion satrlarda ifodalangan:

*Men beparvo bo'la bilmaman, Ey "baxtli" diyorning ey beparvosi. Qalbimni asrimning tomiriga ularman. Mayli, oshsin qon bosim, shart por(t)lasin kardiogramma. Ko'zlarimning devoriga qarab o'larman.*

*Sendan ayamasman umrimni, asrim. Bu umrim nimadir?! Bir varaq qog'oz kabi o'zimni yirtmasam...*

She'r "*shamollar poyida*" xazondek sinayotgan notavon odamzodning achchiq qismatiga marsiya o'laroq yangraydi. She'r nihoyasida shamollar bo'ronga aylanadi. Shoir boshqa bir she'rida shamollarni "dolg'alarning shoshqin oqimida shiddat ila yuzayotgan" kemanding darg'asiga o'xshatadi.

"*Shamollar*" she'ri yozilgan 60-yillari Abdulla Oripovning o'tkir, dardchil she'rlari butun ittifoqni kezib yurardi. Xususan, uning 1969-yili yozilgan "*Yurtim shamoli*" she'rida shamol obrazi o'ziga xos tarzda poetiklashtiriladi. Rauf Parfi "*Shamollar*"idan farqli o'laroq Abdulla Oripov "*shamol*"i ajib tarovatli, ona yurtning o'zidek mehribon va yoqimli. "*Shamollar ichida bir shamol*" bo'lgan lirik qahramon qayg'ulardan xoli yurt shamolidan sarmast. Uning o'zi iqror bo'lmoqdaki, shu paytgacha turfa xil nafasda esgan qancha shamollarga yuz burgan. Ammo yurak ularning beqaroru bevafofigidan ozurda. Baribir, o'z shamoling ifori boshqacha! Buni teran his qilgan shoir yurt shamoliga yuzlanib: "*Faqat qayg'ulardan sen o'zing xoli*" deyishida chuqur asos bor. She'r shoirning badiiy tilda aytilgan istak-tilagi, yaxshi niyatiga o'xshaydi, albatta. She'rdagi shamol ruhning mangu xayoliga evriladi; shoir shamol bilan muloqotga kirishar ekan, undan faqat yaxshiliklar, xayrli oqibat kutadi. Shamolga qarata shunday xitob qiladi:

*Shamollar esgandir ushbu dunyoda,  
Shamollar goh quyun, gohida dovul.  
Ular goh oshkora, goho ro'yoda  
Qancha bo'stonlarni sovurgan butkul,  
Lekin sen bo'lmagin bog'lar zavoli,  
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.*

(Aripov 200: C.1 167)

Bu o'rinda bir obraz doirasida bir-biridan mutlaqo farqli she'r yozgan ikki shoirni tushunish mumkin. Abdulla Oripov "*Shamol*"i o'sha yillari ijodida ildiz otayotgan yurtparvarlik, o'z jafokash eli, millatiga hamdardlik, uni boshqa ellardan ayricha ko'rishning poetik tilga ko'chishi bilan ham bog'liq bo'lsa kerak. Shoir zohiran shu tarzda o'z vatani, xalqiga shamol vositasida izhori ishq qilayotgandek ko'rinsa-da, yurtining hech kimdan kam emasligi, hatto uning bag'rida esgan epkinlari ham o'ziday pok va musaffo ekanini she'r mazmuniga singdirib yuboradi.

"*Yurtim shamoli*" she'ridagi shamol obrazi, aniqrog'i, yurt shamoli ijobiy xarakterga ega. Shuning uchun ham lirik qahramon *shamolni dovul, quyun* kabi so'zlardan ajratib, ularga qarshi qo'yadi.

Nazarimizda, Abdulla Oripovning ushbu “Shamol”i ozodlik, erk timsoli bo‘lish bilan birga, lirik qahramonni ulug‘ ajdodlar (masalan, sohibqiron Amir Temur) yashab o‘tgan adolatparvar zamonga eltuvchi vosita hamdir. Bir qarashda yurt shamoliga qasidaday bo‘lgan she‘r tagzaminiga boshqa muhim fikr yashringandek; o‘z davri muhitidan qoniqish hosil qilmayotgan lirik qahramon – shoir xayolan shamol qanotida moziyning nurli ma‘volariga sayr etib, o‘tmishdagi (yoki o‘z orzusidagi – kelajakdagi) ozod va qudratli vatanni qo‘msayotgandek taassurot uyg‘otadi.

Shoir o‘z hayotiy dasturini she‘rning so‘nggi bandidagi “*Shamol kabi keldim, shundoq keturman*” satri orqali uqtirgandek bo‘ladi va uni “*bir oliy jamol*” chorlayotganidan ogoh etadi.

Rauf Parfining ham talpingani ana o‘sha “bir oliy jamol” edi. Lekin ikki shoir U tomon turli yo‘l – turli shamollar orqali bormoqchi. Bundan tashqari, Rauf Parfi Ona Yer uzra esgan barcha shamollarni o‘z yuragiga qaratilgan deb qabul qilayotir. Uning “Shamollar”i umumbashariy mohiyat kasb etmoqda.

Rauf Parfi she‘rlarida shamol najotkor kuchga aylanadi. Bunda ajib kontrastni ko‘rishimiz mumkin. Shoir she‘rlarida Shamol obrazi bir vaqtning o‘zida ham najot, ham halokat keltiruvchi kuch sifatida talqin etiladi. Ushbu obrazga matndagi badiiy funksiyasiga qarab bir qancha sifatlashlar yondosh qo‘yiladi: *sarin* shamol, *yovuz* shamol, *qora* shamollar, *sovuq* shamollar, *ajal* shamoli, *o‘lik* shamol, kuzning yaydoq *sariq* shamoli, *vabo* shamoli...

Shoirning ilk ijodiga mansub she‘rlarida shamol obrazi, asosan, lirik qahramon kayfiyati, ruhiyati bilan uzviy bog‘liq tarzda she‘rga ko‘chib o‘tadi. Dastlabki she‘rlarida shamol shoirning intim hislari bilan tutashib, unda ko‘proq yorug‘ kayfiyat paydo qiladi. “Yaproqlarda shamol o‘ynar...” deb boshlanuvchi she‘rni olaylik. She‘r boshida lirik qahramonni yaproqlarda, suv mavjida o‘ynayotgan sarin shamol nimalar deb so‘ylayapti, yuragida qanday xayollar bor ekan, kabi o‘ylar band etadi. Ana, shamol uning derzasini chertdi, eshigini tiqirlatdi. U lirik qahramonning shamoldek beqaror, goh sarin, yoqimli, goh shiddatli o‘y-xayollari bo‘lsa, ajab emas. Xullas:

*Orom bilmas, bilmas uyqu,*

*Uyg‘otadi kelib meni.*

Keyin shamol shoir sochlari, ko‘zlariga qo‘nib, qo‘shiq aytib ketadi. She‘r yakunida shoir shamol bilan xayrlashar ekan:

*Menga atab bir qo‘shiq ol,*

*Ola kelgin bir afsona,*

deydi. Shoir shamoli yurakdagi hislar yong‘inini o‘chirmaydi, aksincha, alanga oldiradi. Sezimlari uyg‘oq o‘quvchi ushbu she‘rning har satrida mayin epkinlar ufurib turganini, misralararo sarin shamol esayotganini his qiladi. Umuman, she‘rda shamol umid, yorug‘ kunlarga ishonch ramziga aylanadi.

Shoir she‘rlarida *shamol obrazi* ko‘pincha *yomg‘ir obrazi* bilan birga keladi. Bunda mantiqiy bog‘liqlik bor, albatta. Go‘yo tabiatning azal yonma-yon ikki hodisasi – shamol va yomg‘ir inson qalbi, ruhiyatidagi qondosh, ba‘zan bir-biriga qarshi tuyg‘ular qiyofasida gavdalanadi. Borgan sari Rauf Parfi ijodida shamol obrazi mukammallashib, unga yuklangan mazmun salmog‘i ortdi. Shoirning yapon xokkulariga ham monand uchliklarida shamol obrazi ko‘p uchraydi:

*“Voh jonim, voh jonim”, deb hirqirar*

*Derazamning ortida shamol,*

*Yulib tashlasam edi jonimni qani.*

Bora-bora shoir she'rlariga *tentirayotgan, xomush tortib, junjikib qo'ygan, shovullagan, uvillagan*, mudhish xayollarga egizak *qora* shamollar kirib keladi. “*Yo'limizni kesma, ey yovuz shamol!*”, “*Nechun boshim uzra qora shamollar*”, “*Kecha shovullagan shamollar o'ldi*”, “*Jismimni sindirdi – ajal shamoli*”, “*Barchaning boshinda birdek beomon, Manhus zamonlarning o'lik shamoli*”, “*shamollar marsiyasi*” kabi misrayu iboralar endi lirik qahramon intim kechinmalari doirasidan o'tib, davr, zamon, dunyo taqdiriga o'zini daxldor sezayotganidan darak beradi. Ba'zan bir she'rning o'zida shamol bir nechta sifat oladi: *sovuq shamollar, ajal shamoli* kabi...

“*Endi tanizorim to'ldirdi shamol*” deydi shoir yana bir o'rinda. Bu yerdagi shamol yo'qlik belgisimikan? Bir paytlar shamolga eng qadrdon sirlarini ishongan shoir – lirik qahramon endi “Shamol, sochlarimni tarama” deydi.

She'riyatda metafora hamisha bardavom; har bir asl shoir an'analarga tayangan holda metaforaning poeziyadagi o'rnini kengaytiradi, yangilaydi. Rauf Parfi ijodida metafora-she'rlar ko'p (Jumladan, yuqorida biz tahlil etishga uringan “Shamollar” she'ri). Metaforik tafakkur – Rauf Parfi she'riyatining muhim belgisi. Bu uning ijodiy individualligini ta'minlovchi asosiy vositalardan. Shoir ijodining ushbu xos belgisini Asqad Muxtor shunday e'tirof etgandi: “Rauf Parfi poeziyada murakkab va dinamik metaforalar usulini tanladi. Unda ayrim obrazlargina emas, balki butun she'r metafora harakatiga quriladi, metafora poetik tilga, obraz mantiqiga, she'riy tafakkur boyligiga aylanadi” (Parfi, 1986: 5). Ammo metafora she'rni sun'iy lashtirish, so'z yasash evaziga bo'lmasligi kerak. Buni unutilgan shoir she'r olamini shunchaki mavhumot bilan “*boyitadi*”, xolos. Ba'zan “zo'raki” metafora mantiqsizlikka olib kelishi mumkin. Shu ma'noda Rauf Parfining ayrim tizmalarida me'yor buzilganini ham qayd etib o'tish joiz.

Xulosa qilib aytganda, Rauf Parfi ijodida Shamol obrazi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu obrazga muhim badiiy yuk ortilgan. “Shamollar” she'rini Abdulla Oripovning “Yurtim shamoli” she'ri bilan qiyoslab o'rganish asnosida shu xulosaga keldikki, Abdulla Oripov “shamol”i milliy koloritda bo'lsa, Rauf Parfi “Shamollar”i umumbashariy mohiyat kasb etgan.

#### **Kaynakça**

Oripov A. (2000), Tanlangan asarlar. 4 jildlik. Jild 1. – Tashkant: Adabiyot va san'at.

Parfi R. (2013), Saylanma. Tashkant: Akademnashr.

Parfi R. (1986). Sabr daraxti – Tashkant: Adabiyot va san'at.

Sarimsoqov B. (2004), Badiiylik asoslari va mezonlari. – Tashkant: Fan.

Svetayeva M. (2001), Mening Pushkinim // Jahon adabiyoti, 2001, iyun.